

## OLIV HARBIY O'QUV YURLARIDA KREDIT MODUL TIZIMINING KLASTER USULIDAN FOYDALANISHNING KOMMUNIKATIV TENDENSIYALARI

**Nigmatov Zafarjon Zakirovich**

*T.f.t.n (PhD), Chirchiq OTQMBY QKF va QB kafedrası katta o'qituvchisi*

**Akramov Bekzod A'zam O'g'li**

*Chirchiq OTQMBY QKF va QB kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kredit-modul tizimining afzalliklari aytib o'tilgan. Kursant va tenilovchilarni erkin fikrlashga va mustaqil ishini topshirib, bilimni reyting asosida baholanishi ham ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari klaster usulini kredit-modul tizimiga bog'lagan holda ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'quv jarayonida asosiy e'tibor kursant va tenilovchilarning mustaqil ishlashiga qaratilganligidir. Ushbu maqolada kredit-modul tizimi va uning O'zbekiston ta'lim tizimida joriy etilishi, ahamiyati, dunyo mamlakatlarining ta'lim tizimida kredit-modul tizimining o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va 78 afzalliklari haqidagi fikrlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kredit-modul tizimi, klaster, metod, texnologiya, fikrlash, kompyuter, bilim, mashg'ulot.*

## USING OF THE COMMUNICATIVE TENDANTIONS THE CLUSTER METHOD OF THE CREDIT MODULE SYSTEM IN HIGHER MILITARY EDUCATION SCHOOLS

**Nigmatov Zafarjon Zakirovich**

*Chirchik Higher Tank Commanding Engineering school Department of daily activities of troops and management of troops, d.ph.t.s (PhD)*

**Akramov Bekzod A'zam O'g'li**

*Chirchik Higher Tank Commanding Engineering school Department of daily activities of troops and management of troops teacher*

**Annotation:** *this article mentions the advantages of a credit-module system. It is also indicated that cadets and tenilovists are assigned free thinking and independent work, and their knowledge is assessed on the basis of a rating. In addition, one of the peculiarities of the educational system, linking the cluster method to the credit-module system, is that the main emphasis in the educational process is on the independent work of cadets and tenilovers. This article describes the idea of the credit-module system and its introduction, importance in the educational system of Uzbekistan, the peculiarities, capabilities and 78 advantages of the credit-module system in the educational system of countries of the world.*

**Keywords:** *credit-module system, cluster, method, technology, thinking, computer, knowledge, training.*

Bugun Yangi O'zbekistonning jahondagi ijobiy imijini mustahkamlash, samarali tashqi va ichki siyosat yuritish, mamlakat xavfsizligini ta'minlash mutaxassislar zimmasiga har qachongidan-da mas'uliyatli vazifalar yuklamoqda. Bunday murakkab vazifalarni samarali hal etish sifatli ta'lim olayotgan, xalqimiz va Vatanimiz manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yadigan milliy kadrlarimizga bog'liq.

“Talim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yogona tog'ri yilidir”, dedi Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga murojaatnomasida. Demak, sohada boshlangan isloxlarni izchila davom ettirish, talim-tarbiya muassalarida mavjud mouammalarni birgalikda hal qilish, umuman, talim sifatini har tomonlama yaqshilash boyicha saiy-harakatlarni birlashtirish va bir-birimizga komaklashimiz ju'da mhim. Prezidentimiz tabiri bilan aytganda, “Harbiy talim va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida, milliy o'zligimiz, ezgu qadriyatlarimiz sadoqat ruhida tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish barchamizning eng muhim vaziyfanizdir”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ga ko'ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan[1]. Ushbu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 30 iyundagi qarori bilan 2020/2021-o'quv yilidan boshlab mamlakatimizdagi 35 ta OTM kredit-modul tizimiga o'tishi belgilandi. Ushbu qaror ijrosi natijasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi va Oliy harbiy ta'lim muassalarining ta'lim jarayoniga ham jahondagi va yurtimizdagi yetakchi Oliy ta'lim muassasalari tajribasi asosida kredit-modul tizimi joriy etilmoqda.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida imkoniyat yaratilmoqda. Ta'lim muassalarida keng qo'llanayotgan klaster ta'lim tarbiya jarayonini bir butun holatda amalga oshirishda muammolarni yechishda dars jarayonini oqilona tashkil qilishda, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirishda, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, loyiha, roli o'yinlar kabi metodlarni qo'llashda amaliy mashqlarni mustaqil bajarishda biror faoliyat yoki muammo o'zaro muloqot, o'zaro bahs-munozarada fikrlashda hamjihatlik bilan masalalarning yechimida o'z samarasini ko'rsatadi. Bu usulning afzalligi shundaki, kursant va tenilovchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'qitishning klaster usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomliligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar xususida erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi [2]. Mazkur metod turli g'oyalarni o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Ushbu metod harbiy fanlardan muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilganiga qadar fikrlash faoliyatining bir maromida bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro klasterlarni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Klaster usulini hozirgi zamonaviy kredit-modul usuliga ham qo'llashimiz mumkin. Kredit-modul tizimi ta'limni tashkil etish jarayoni, o'qitishning modulli texnologiyalari majmua va kredit mezonlari asosida baholash modelidir. Uni bir butun sifatida olib borish ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Kredit-modul tizimida ahamiyat beriladigan asosiy masalalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin [3]:

- kursant va tenilovchilarning mustaqil ishlashini ta'minlash;
- kursant va tenilovchilar bilimini reyting asosida baholash;
- oliy harbiy ta'lim muasasalarida o'qitishning modulli texnologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- kursant va tenilovchilarning o'z ustida mustaqil ishlashini ta'minlash uchun fanning metodik ta'minotini yanada takomillashtirish.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- o'quv jarayonini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan va kurs kesimida kreditning qiymatini aniqlash;
- kursant va tenilovchilar bilimini reyting asosida aniqlash va baholash;
- kursant va tenilovchilarning o'z shaxsiy o'quv rejalarini individual tarzda shakllantirishga imkoniyat yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yiladigan talabdan kelib chiqib o'zgarishlarni amalga oshirish;
- kursant va tenilovchilarning fanlar va professor-o'qituvchilarni tanlashi uchun imkoniyatlar yaratish.

Bular qatoriga nafaqat innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish, balki kursant va tenilovchilarning mustaqil bilim olishi, ta'limga yangicha yondashish, mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda zarur va chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash ham kiradi. U ilm-fan sohibining umrbod bilim olishini ta'minlash, shuningdek, mehnat bozori va zamonaviylik talablariga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan [3]. Metodologiya. Modul va kredit tushunchalarining mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Modul - bu bir nechta fan va kurslarni o'z ichiga olgan o'quv dasturining bir qismi. Bu kursant va tenilovchilarnilarda ma'lum bilim va ko'nikmalarni egallashga, analitik va mantiqiy kuzatishni o'tkazishga

qaratilgan bir necha fanlar (kurslar) majmuidir. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video va audio ma'ruzalar o'qiydi, kursant va tenilovchilarnilar faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi.

Kursant va tenilovchilarni mavzuni mustaqil o'rganadi va topshiriqlarni bajaradi. Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2-4 moduldan iborat. Modulda umumlashtirilgan fanlar murakkablik asosida, nazariy va uslubiy fanlardan amaliy fanlargacha, shuningdek, mantiqiy bir-birini to'ldirish tamoyili asosida oson shakllantiriladi. Mutaxassis bo'lish uchun kursant va tenilovchilarnidan nafaqat axborotni qayta ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish, balki uni qayta ishlash va amaliyotda qo'llash ham talab qilinadi. Modul asosidagi o'quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi. - o'quv maqsadi va vazifalarini to'liq ochib berish; - Kursant va tenilovchilarnining kurs boshida va oxirida egallashi kerak bo'lgan malakalariga qo'yiladigan talablar; - modulga kiritilgan har bir fan bo'yicha konspekt (konspekt), ya'ni ma'ruza mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlar jadvali, mustaqil ta'limni baholash uchun topshiriqlar; - o'qitishning qisqacha mazmuni: o'qitish usullari va vositalari; bilimlarni baholash usullari va shakllari. Modul asosida reyting tizimi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash uchun reyting tizimidan foydalanadi. Bunda o'quvchining barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va sinfdan tashqari o'zlashtirilgan bilimlari ball bilan baholanadi. Kredit - bu kursant va tenilovchilarnining ma'lum bir ta'lim yo'nalishi yoki dastur bo'yicha fanni o'rganish va o'zlashtirish uchun sarflagan vaqt miqdori.

Kredit - kursant va tenilovchilarnining auditoriyada va mustaqil ravishda, odatda, bir hafta ichida o'qishi uchun normativ hujjat bilan belgilangan minimal vaqt. Kredit kursant va tenilovchilarniga ma'lum bir fan bo'yicha topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihonni topshirgandan so'ng beriladi [4]. Har bir kursant va tenilovchilarni o'zi tanlagan yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha kelajakda diplom olish uchun kredit to'plashi kerak. Yig'ilgan kredit kursant va tenilovchilarniga umrining oxirigacha malakasini oshirish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olish uchun xizmat qiladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan to'plangan kredit kursant va tenilovchilarnining akademik "aktiv" ga aylanadi. Kredit texnologiyasi kursant va tenilovchilarnilarga ishchi o'quv rejasiga kiritilgan tanlash fanlarini bevosita tanlash huquqini beradi va shu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. Ularga nafaqat fanlarni, balki professorlarni ham tanlash erkinligi berilgan. Kursant va tenilovchilarnilarga fanlarni tanlash imkoniyatini berish ijobiy holat. Shuningdek, u o'quv jarayonini baholashning o'ziga xos ko'rsatkichidir.

Innovatsion usullardan foydalanish o'qitiladigan fanlarning soatini inobatga olgan holda ular bilimni oshirish muammosini ham har hil yo'llar bilan hal qilish zarur. Ammo, klaster metodi mahorati shunday universal komponentlarni o'z ichiga qamrab oladiki, ushbu komponentlardan turli o'quv fanlari pedagoglari foydalana oladilar va bu

yo'nalishda ular tez vaqtda yaxshi natijaga erishishlari mumkin. Salohiyat aniq fan yo'nalishida aniq ishni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga hos hususiyatni bildiradi. Salohiyat tushunchasi o'z ichiga maxsus bilimlar, o'ziga hos ko'nikmalar, fikrlash usullarini va o'z harakatlariga javobgarlikni tushunishni qamrab oladi. Yana shu ham ma'lumki, o'qituvchilar o'tkazilayotgan mashg'ulotlardan, o'zi qilayotgan ishidan qoniqish hosil qilishi ham juda katta ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, kursant va tenilovchilarnilarga zamonaviy bilim berish professor o'qituvchilarni muhim burchidir. Kredit-modul o'qitish tizimiga o'tish oliy harbiy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari majburiyati hamda ular oldidagi talabni ham oshiradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, modulli o'qitish tizimi bilan o'qituvchi nafaqat axborot beruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalarini, balki maslahatchi hamda muvofiqlashtiruvchilik vazifalarini ham bajaradi.

Ushbu maqolada ham kredit-modul tizimini afzalliklari aytib o'tilgan. Bu kursant va tenilovchilarni erkin fikrlashga va mustaqil ishini topshirib, bilimni reyting asosida baholanishi ham ko'rsatilib o'tilgan. Bundan tashqari klaster usulini kredit-modul tizimga bog'lagan holda harbiy fanlardan dars jarayoni ham olib borilishi asosida samarali natijalarga erishilishi mumkin.

Shubhasiz, ushbu takliflarning qisman bo'lsa ham amalga oshirilishi oliy harbiy ta'limda o'quv jarayoni sifatiga ta'sir etuvchi omillardan bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabedagi PF-6079 sonli —Raqamli O'zbekiston 2030|| strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida||gi farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 13 yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi ma'ruzasi.

4. Yuldashev Ulmasbek Abdubanapovich, va Samatboyeva Marjona Baxtiyor qizi. "Raqamli texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi". science and innovation 1b3 (2022): 110-113.

5. Yuldashev U.A., Xudoyberdiev M.Z., Axmedov T.B. O'quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 3. – C. 1262-1268.

6. Azixzodjayeve N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat-T: ТДПУ, —Nizomiy, 2003

7. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma.–Toshkent, TKTI, 2020. – 120 bet.
8. O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O'quv qo'llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.
9. Ахмедов, Б. А., Шайхисламов, Н., Мадалимов, Т., Махмудов, Қ. (2021). Smart технологияси ва ундан таълимда тизимида кластерли фойдаланиш имкониятлари. SCIENTIFIC PROGRESS, 1(3), 102-112.